

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI BILAN O'ZARO MUNOSABATLARIGA OID FIKR VA MULHAZALAR



Torebekov Baxtiyar Ismandiyarovich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada ichki ishlar organlarining davlat hokimiyati vakillik organlari bilan o'zaro munosabatlaridagi o'ziga xos xususiyatlar, huquqiy asoslariga oid fikr va mulohazalar ilgari surilgan. Ichki ishlar organlarining davlat hokimiyati vakillik organlari bilan o'zaro munosabatlaridagi alohida jihatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida tahlil qilinib, bunday munosabatlarning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy davlat hokimiyat organlari, hisobdorlik, qonun ijodkorligi va tashabbuslar, deputatlik so'rovlari, parlament nazorati, hududiy profilaktik tadbirlar.

МНЕНИЯ И РАЗМЫШЛЕНИЯ О ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ С ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫМИ ОРГАНАМИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ

Аннотация. В статье изложены мысли и размышления об особенностях и правовых основах взаимоотношений органов внутренних дел и представительных органов государственной власти. На примере Республики Каракалпакстан анализируются особенности взаимоотношений органов внутренних дел и представительных органов государственной власти, указываются основные направления таких взаимоотношений.

Ключевые слова: местные органы государственной власти, подотчетность, законотворчество и инициативы, парламентские запросы, парламентский контроль, территориальные профилактические меры.

OPINION AND CONSIDERATIONS ON THE RELATIONSHIPS OF INTERNAL AFFAIRS BODIES WITH REPRESENTATIVE BODIES OF STATE AUTHORITY

Abstract. The article presents thoughts and considerations on the peculiarities and legal bases of the relationship between internal affairs bodies and representative bodies of state power. Using the example of the Republic of Karakalpakstan, the peculiarities of the relationship between internal affairs bodies and representative bodies of state power are analyzed, and the main directions of such relationships are indicated.

Keywords: local government bodies, accountability, lawmaking and initiatives, parliamentary inquiries, parliamentary control, territorial preventive measures.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat

qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini

“Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g’oya asosida tashkil etish kerakligini uqtirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida” 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son farmonida muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining istiqbolli yo’nalishlarini belgilash maqsadida, jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi ilg’or xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan hamda aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etilmoqda [1].

Mazkur dasturulamal hujjatga ko’ra, Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari majlislarida hududiy ichki ishlar organlari rahbarlarining o’rinbosarlari – jamoat xavfsizligi xizmati boshliqlari tomonidan har chorakda jamoat xavfsizligi yuzasidan hisobot berish tartibi belgilangan.

Ma’lumki, «Ichki ishlar organlari to’g’risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 13-moddasida ichki ishlar organlari tizimi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog’iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalari (bo’limlari), transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmalari (bo’limlari), jazoni ijro etish muassasalari, ichki ishlar organlarining o’ta muhim va toifalangan obyektlardagi bo’linmalari, shaharcha ichki ishlar bo’linmalari, mahalla huquq-tartibot maskanlari hamda ichki ishlar organlarining tayanch punktlari, shuningdek ta’lim va tibbiyot muassasalari, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladigan boshqa bo’linmalar va tashki-

lotlardan tashkil topishi qayd etilgan [2].

Ushbu Qonunning 13¹-moddasiga ko’ra, Qoraqalpog’iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalarining, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining boshliqlari huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to’g’risida, ularning o’rinbosarlari – Jamoat xavfsizligi xizmati boshliqlari jamoat xavfsizligi haqida har chorakda tegishincha Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesiga, xalq deputatlari Toshkent shahar va viloyatlar Kengashlariga hisobot taqdim etishi belgilab qo’yilgan.

Ta’kidlash lozimki, bugun kunda mahalliy boshqaruv tizimida keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu, o’z navbatida, ichki ishlar organlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o’zaro munosabatlariga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Bu borada professor I. Xamedov va tadqiqotchi I. Say haqiqatan ham mahalliy boshqaruv islohotlarining asosiy konseptual masalasi – bu o’zgarishlarga asos bo’ladigan modelni tanlash ekanligini o’z ilmiy qarashlarida bayon etadilar [3]. Xorijiy tajriba, shuningdek, «O‘zbekiston – 2030» strategiyasining maqsadlari mahalliy boshqaruv tizimida o’zini o’zi boshqarish tamoyillarini kuchaytirish zarurligini ko’rsatmoqda. Hokim mahalliy kengash rahbari bo’lgan vaqtda, kengash o’zining davlat organi sifatidagi maqomini yo’qotib, munitsipal hokimiyat organiga aylanishi mumkinligi hech kimning xayoliga ham kelmagan. Biroq yangi sharoitda joylardagi vakillik organlarini, shuningdek, ularning hokimlar bilan o’zaro hamkorligining tashkiliy-huquqiy mexanizmini tubdan o’zgartirish islohotlarning asosiy maqsadi ekanligini unutmaslik kerak.

Mamlakatimizda muhim konstitutsiyaviy o’zgarishlar amalga oshirilayotganligiga qaramay, mahalliy kengashlar hanuzgacha munitsipal emas, balki davlat hokimiyati organlari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi qonunida ularning mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari sifatidagi maqomi aniq belgilab qo’yilgan. Unga asosan, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda

(tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir. Turli darajadagi mahalliy kengashlarning bir-biriga bo'ysunishi, garchi ular tegishli hudud aholisi tomonidan saylansa-da, ushbu organlarning davlat-boshqaruv xususiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Hokimlar joylardagi ijro hokimiyatiga rahbarlik qilish bilan birga, davlat hokimiyatini ham ifodalaydi va tegishli hududda umumdavlat siyosatini amalga oshirish uchun javobgar hisoblanadi. Aniqroq aytganda, bugungi kunda faqatgina mahallalar darajasida – davlat hokimiyati aralashuvidan qonuniy jihatdan himoyalangan munitsipal avtonomiyaga ega bo'lmagan va mahalliy darajada mustaqil siyosat yuritish uchun yetarli moliyaviy-moddiy salohiyatga ega bo'lmagan – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari deb hisoblash mumkin.

Mahalliy kengash vakolatida ma'murchilik va vakillik asoslarining bunday qorishib ketishi faqat mahalliy boshqaruvning sovet modeliga xos. Mamlakatdagi mahalliy boshqaruv tizimida hokimlarning maqomi kengashlarning to'laqonli hokimiyatiga asoslangan sovet modelini to'liq takrorlamasa-da, ushbu modelning Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi postsovet modifikatsiyasi mantig'iga to'liq mos keladi [3].

Agar islohotning maqsadi mahalliy kengashlarni joylarda umumdavlat siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul organlar emas, balki hududlar aholisining manfaatlarini ifodalovchi organlar, ya'ni "xalqning haqiqiy ovozi" ta'rifiga va "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyiliga javob beradigan munitsipal hokimiyatning vakillik organlariga aylantirish deb hisoblasak, mahalliy boshqaruvni kontinental model bo'yicha isloh qilish yo'li eng maqbul ko'rinadi [4].

Ushbu masalada tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar *kontinental modelning* o'ziga xos xususiyatlarini qayd etib, mazkur model islohotni bosqichma-bosqich amalga oshirishga imkon beradi, markaziy hokimiyat tomonidan ishonchli nazoratni saqlab qolgan holda munitsipal hokimiyatlarga bosqichma-bosqich tobora ko'proq

mustaqillik berib borishni ta'kidlaydilar. Markaziy va Sharqiy Yevropaning aksariyat postsotsialistik mamlakatlari o'zlarining mahalliy boshqaruv tizimlarini sovet modelidan kontinental modelga isloh qilish yo'lidan bordi. Ularning tajribasi aynan dastlabki institutsional shart-sharoitlar va mo'ljallanayotgan transformatsiya modelining o'xshashligi nuqtai nazaridan O'zbekiston uchun manfaatli ekanligi qayd etishadi.

Mahalliy boshqaruv tizimidagi islohotlar, O'zbekiston uchun maqbul modellar haqidagi fikr va mulohazalar bahsli va munozarali. Shu jihatdan ichki ishlar organlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabatlarining mazmuni, tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlariga oid fikrlarimizni bayon etamiz. Albatta, ichki ishlar organlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabatlari keng ma'noda davlat va jamiyatdagi tartibni saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatlar bilan kurashishda muhim rol o'ynaydi. Bu o'zaro munosabatlar organlar o'rtasidagi huquqiy, ijtimoiy va amaliy muloqotlarni, hamkorlikni va muammolarni hal qilishni nazarda tutadi. Ichki ishlar organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari (ya'ni, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari) o'rtasidagi munosabatlar ayrim asosiy prinsiplar va mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, ichki ishlar organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi munosabatlar quyidagi asosiy prinsiplarga tayanishi lozim:

Hamkorlik va o'zaro hamjihatlik. Ichki ishlar organlari va mahalliy hokimiyat organlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirib, jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va aholiga xavfsiz muhit yaratish maqsadida yaqin hamkorlikda ish olib boradilar.

Vakolatlar taqsimotiga rioya qilish. Har bir organ o'z vakolatlari doirasida harakat qiladi. Mahalliy hokimiyat organlari ichki ishlar organlariga qonun hujjatlarida belgilangan doiradagina ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mahalliy ahamiyatga ega masalalarni birgalikda hal etish. Jamoat tartibini saqlash, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktika ishlarini tashkil etish kabi vazifalarda ikki organ birgalikda faoliyat yuritadi.

Axborot almashinuvining shaffofligi. Ichki ishlar organlari va xalq deputatlari Kengashlari o'rtasida zarur ma'lumotlar almashinuvi tashkil etiladi, bu esa qarorlar qabul qilish samaradorligini oshiradi.

Hisobdorlik va jamoatchilik nazorati. Ichki ishlar organlari mahalliy Kengashlar oldida hisobot beradi (ma'lum vaqtda, jamoat xavfsizligi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan). Bu demokratik nazoratni ta'minlaydi.

Qonun ustuvorligi. Barcha munosabatlarda Konstitutsiya va qonunlarga qat'iy rioya qilinadi, hech bir organ o'z vakolatini suiiste'mol qilmasligi kerak.

Ilmiy adabiyotlarda ichki ishlar organlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan «o'zaro munosabatlari» hamda ichki ishlar organlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan «o'zaro hamkorligi»ga oid tushunchalarni uchratish mumkin [5, 6].

Ichki ishlar organlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabatlari – bu davlat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash yo'lidagi samarali hamkorlik. Ushbu munosabatlar davlat siyosatiga, qonunlar va mahalliy talablarga asoslanadi va ularning maqsadi – jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va ijtimoiy barqarorlikni saqlash.

Ichki ishlar organlari bilan davlat hokimiyati vakillik organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida qaraydigan bo'lsak, bunga umumiy huquqiy-siyosiy tizim doirasida amalga oshiriladigan o'ziga xos hududiy xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon sifatida qarash mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren respublika bo'lib, uning davlat hokimiyati vakillik organi – **Jo'qorg'i Kenges** hisoblanadi. U Konstitutsiya va Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy asoslariga ko'ra qonunchilik

faoliyatini amalga oshiradi, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaning 68-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi [7].

Ichki ishlar organlarining davlat hokimiyati vakillik organlari bilan o'zaro munosabatlarning quyidagi asosiy yo'nalishlarni ko'rsatish mumkin:

Hisobot berish va axborot taqdim etish. Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV rahbariyati Jo'qorg'i Kenges sessiyalarida belgilangan masalalar yuzasidan hisobot beradi. Bu orqali vakillik organi ichki ishlar faoliyatini nazorat qilib boradi.

Qonun ijodkorligi va tashabbuslar. Jo'qorg'i Kenges jinoyatchilikning oldini olish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan hududiy me'yoriy hujjatlar qabul qiladi. IIV bu jarayonda amaliyotchi tashkilot sifatida ishtirok etadi.

Deputatlik so'rovlari va parlament nazorati. Jo'qorg'i Kenges deputatlari ichki ishlar organlari faoliyati yuzasidan deputatlik so'rovlari yuborishi, shaxsiy qabullar o'tkazishi mumkin. Bu fuqarolarning murojaatlarini hal etishda mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshiradi.

Hududiy profilaktik tadbirlar. IIV va mahalliy davlat hokimiyati organlari hamkorligida hududlarda «Xavfsiz hudud – dolzarb 50 kunlik» keng qamrovli maxsus profilaktik tadbirlar o'tkazilishi bu yo'nalishdagi o'zaro munosabatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ichki ishlar organlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan *o'zaro hamkorligi* jamoat xavfsizligi, jinoyatchilikka qarshi kurashish va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan muhim faoliyatdir. Bu turli shakllardagi hamkorlik, axborot almashinuvi va qo'shma tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu hamkorlik aholi huquqlarini himoya qilish va jamoat tartibini saqlash uchun zarurdir.

Shu asosda ichki ishlar organlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro hamkorligi – bu ichki ishlar organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari (tuman, shahar hokimliklari, mahalliy kengashlar) o'rtasida qonunga asoslangan, jamoat xavfsizligi, jinoyatchilikka qarshi

kurashish, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va boshqa ijtimoiy muam-molarni hal qilish maqsadida olib boriladigan hamkorlik faoliyati, deb ta'rif berish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, elektron tizimlar orqali axborot almashinuvni keng joriy qilish, **jamoatchilik bilan ochiq muloqotlarni**

kuchaytirish, amaliyotda uchrayotgan muam-molarni qonunchilik orqali hal etishda IIV taklif-larini hisobga olish ichki ishlar organlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 06/21/6196/0240-son.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 8-son, 438-m.
3. Xamedov I., Say I. Mulohaza: O'zbekiston mahalliy hokimiyat organlarini isloh qilishning qaysi modelini tanlaydi? // <https://www.gazeta.uz/uz/2025/03/27/local-government-reform>.
4. Азизова А. И. Основные модели местного самоуправления // Актуальные проблемы права: Материалы VIII междунар. науч. конференции. – Т., 2019. – С. 3–6.
5. Андреева В. А. и др. Зарубежные модели местного самоуправления: достоинства и недостатки // Журнал «Инновационные аспекты развития науки и техники», 2021. – № 3. – С. 193–196.
6. Беженцев А.А. Взаимодействие правоохранительных органов с общественностью: понятие, цели и задачи // Юрист-Правовед, 2024. – № 1(108). – С. 27–32 / file:///C:/Users/Acer/Downloads/vzaimodeystvie-pravoohranitelnyh-organov-s-obschestvennostyu-ponyatie-tseli-i-zadachi20(1).pdf;
7. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi // <https://joqargikenes.uz/oz/constitution-of-the-republic-of-karakalpakstan>.